

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE ROLE AND STUDY OF ERGONIMS IN THE ONOMASTIC SYSTEM****Muyassar Saparniyazova**

Associate Professor, Ph.D

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: saparniyazovamuyassar@navoiy-uni.uz**ABOUT ARTICLE****Key words:** ergonim, ergonimika, ergonimikon, ergonomic name creation.**Received:** 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23**Abstract:** In linguistics, ergonims as a separate branch of onomastics have been specially studied since the 90s of the 20th century. This article is devoted to the issue of the place of ergonims in the onomastic system, the study of these units in world and Uzbek linguistics.

In the article, the ergonomic system and related terms were also analyzed in detail.

ERGONIMLARNING ONOMASTIK TIZIMDAGI O'RNI VA TADQIQI**Muyassar Saparniyazova**

Dotsent, PhD

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: saparniyazovamuyassar@navoiy-uni.uz**MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** ergonim, ergonimika, ergonimikon, ergonimik nom yaratish.**Annotatsiya:** Tilshunoslikda ergonimlar onomastikaning alohida tarmog'i sifatida XX asrning 90-yillaridan boshlab maxsus tadqiq qilina boshlandi. Ushbu maqola ergonimlarning onomastik tizimdagi o'rnini, jahon va o'zbek tilshunosligidagi mazkur birliklar tadqiqi masalasiga bag'ishlangan.

Maqolada ergonimik tizim va unga tegishli atamalar ham atroflicha tahlil qilindi.

РОЛЬ И ИЗУЧЕНИЕ ЭРГОНИМОВ В ОНОМАСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ**Муяссар Сапарниязова**

доцент, PhD

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Ташкент, Узбекистан

E-mail: saparniyazovamuyassar@navoiy-uni.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: эргонимика, эргонимикон, эргономичного имени.

Аннотация: В языкознании эргонимы как отдельная ветвь ономастики специально изучаются с 90-х годов XX века. Данная статья посвящена вопросу места эргонимов в ономастической системе, изучению этих единиц в мировом и узбекском языкознании.

В статье также подробно проанализированы эргономическая система и связанные с ней термины.

KIRISH

O'zbek onomastikasidagi hali tadqiqini topmagan muammolardan birini ergonim tushunchasi tashkil etadi Ma'lumki, tilshunoslikda *ergonim* termini tashkilot va korxonalar nomini anglatuvchi termin sifatida baholanadi. (1) Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotlarda bu termin o'rnida uning qator muqobillaridan foydalanish hollari ham kuzatiladi. Jumladan, D.A.Yaloves-Konovalova o'z ishlarida NKP (название коммерческого предприятия) qisqartma terminini qo'llaydi. (2) O.Beley, V.Korshunkov, T.Nikolayeva, Y.Ribak, A.Titarenkolar *firmonim* (3); R.Kozlov, Y.Vayrax *ergourbonim* (4)terminlarini ishlatishadi.

Ilmiy manbalarda *ergonim* termini bilan aloqador bo'lgan *ergonimika*, *ergonimiya*, *ergonimikon* terminlari ham uchraydi. M.Zaxarova-Sarovskaya *ergonim* termini va u mansub bo'lgan tizim haqida to'xtalar ekan, tadqiqotlarda *ergonimika*, *ergonimiya*, *ergonimikon* terminlarining qo'llanishida har xilliklar mavjudligini ta'kidlaydi. U *ergonimiya* termini bilan ergonimlarni o'rganuvchi fanni, ilmiy-tadqiqot ishlarida turli aspektlarda o'rganilgan konkret nomlarga nisbatan *ergonimika* terminini qo'llash mantiqan to'g'ri bo'lishini, *ergonimikon* deganda ergonimlar, ya'ni konkret obyektlarni nomlovchi birliklar tizimini tushunish lozimligini ta'kidlaydi (5).

ASOSIY QISM

Mazkur tadqiqotda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yurituvchi korxona, tashkilotlar, ijodiy uyushmalar, ta'lim muassasalari, sport jamiyatlari, firmalar, korporatsiyalar, savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari nomlariga umumiy termin sifatida *ergonim*, ergonimlarni o'rganuvchi sohaga nisbatan *ergonimika*, obyektlarga nom yaratishga nisbatan *ergonimik nom yaratish* terminlaridan foydalanildi.

Ergonim termini tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab keng tarqaldi. Bu termin XX asrda dunyoda urbanizatsiya, shahar muhitini o'zgartirish sharoitida yuzaga keldi va shahar onomastikonining birligiga aylandi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, ergonimlar urbanizatsiya natijasida nafaqat shahardagi, balki qishloq, posyolka, mahallalardagi obyektlar

nomlarini ham anglatuvchi, ushbu hududlarda o'ziga xos nom yaratish usullarini, hududiy nomlarning xususiyatlarini ko'rsatib turuvchi onomastik tizim birliklaridir.

N.V.Podolskayaning qayd etishicha, *ergonim* termini yunon tilidagi *eryov* – “ish, mehnat; faoliyat, vazifa” so'zidan olingan bo'lib, tijorat uyushmalari, turli birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, korporatsiyalar, korxonalar, jamiyatlarning atoqli nomlariga nisbatan ishlatiladi. U ergonimlarga misol sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro astronomik ittifoq (XAI), Fanlar akademiyasi (FA), Moskva davlat universiteti (MDU), Kichik teatr, “Pravda” kombinati, “Spartak” sport uyushmasi, “Moguchaya kuchka” musiqa to'garaklarini keltiradi. (6)

A.M. Yemelyanova esa ergonimlar tarkibiga faqat turli funksional profildagi korxonalarning tegishli nomlari, ya'ni tijorat birlashmalari, korxonalar, madaniyat, sport obyektlarini kiritadi. (7) Y.A.Trifonova ergonimlarga huquqiy maqomidan qat'i nazar, har qanday tijorat obyektlariga tegishli atoqli nomlarni kiritadi va ular orqali subyekt tomonidan qabul qiluvchiga sun'iy ravishda pragmatik ta'sir o'tkazish maqsad qilinishini ta'kidlaydi. (8)

Anglashiladiki, ergonimlar turli-tuman obyektlar nomlarini anglatuvchi, struktur, semantik tuzilishi jihatidan bir-biridan farqlanuvchi birliklar sifatida alohida mikrotizimni hosil qiladi. Bu birliklar onomastik tizim tarkibiga kiruvchi, uning bir tarmog'i hisoblangan ergonimika birliklari bo'lib, nafaqat obyektning nomlash sifatida, balki har bir hududdagi obyektlar nomlari xaritasini yaratishda, ularning o'ziga xosligi va milliy jozibadorligini baholashda ham muhim o'rin tutadi.

Rus tilidagi ergonimlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rgangan M.Kurbanova ergonimlarga yaqin bo'lgan birliklar sifatida oykomodonim, emporonim, reklama nomlari, firmonimlarni keltiradi hamda ulardan farqli quyidagi xususiyatlarini sanab o'tadi:

- 1) ergonimlar tijorat va notijorat tashkilotlariga atab qo'yilgan nomlardir;
- 2) ergonimlar u yoki bu obyektga yuridik jihatdan bog'langan yoki bog'lanmagan tijorat obyektlarining tegishli nomlaridir;
- 3) ergonimlar ma'lum muassasalarni (teatr, mehmonxona, do'kon, kafe, turli uyushmalar, to'garaklar, partiyalar va boshqalarni nomlashi mumkin. (9)

Ko'rinadiki, M.Kurbanovanning ushbu xulosasida N.V.Podolskaya, A.M.Yemelyanovadan farqli tarzda ergonimlarning doirasi ancha kengaytirilgan.

Tilshunoslikda ergonimlar onomastikaning alohida tarmog'i sifatida XX asrning 90-yillaridan boshlab maxsus tadqiq qilina boshlandi. Bu yo'nalishda so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ergonimlarning struktur-semantik, derivatsion xususiyatlari qatorida, pragmatik, lingvopoetik imkoniyatlari ham ochib berildi. (10)

Qator tadqiqotlarda ergonimlarni tasniflash masalasi ilgari surildi. Rus tilshunosligidagi ilmiy manbalarda ergonimlarning turlari sifatida quyidagi obyektlar nomlari alohida ajratib ko'rsatildi: 1) oykomodonimlar – do'kon, firma, bank, turarjoy binolari peshtoqlaridagi nomlar

(I.A.Astafeva); 2) ergourbonimlar – ikkita denotatga ega, ya'ni tijorat tashkilotlari o'zi joylashgan hudud nomi bilan bog'liq lokal obyekt nomlari (R.I.Kozlov); 3) NKP (nazvaniya kommercheskix predpriyatiy) – (D.A.Yaloves-Konovalova); 4) firmonimlar – firma nomlari (O. Beley, V. Korshunova, T. Nikolaeva, Y. Ribak, A. Titarenko); 5) restoronimlar – restoran nomlari (Xoang Txi Xong Chang); 6) trofonimlar – umumiy ovqatlanish obyektlari nomlari (G.N.Starikova); 7) ergoreklamonim – reklama vazifasini ham bajaruvchi tijorat obyektlari nomlari (T.V.Vasileva); 8) glyuttonik pragmatonimlar – restoran va umumiy ovqatlanish korxonalari nomlari (G.Odilova).

Ergonimlarning bu tarzdagi tasnifini N.V.Podolskaya shunday izohlaydi: “Mavzuni chuqurroq o'rganishda ichki aloqalar va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish muqarrar ravishda konsepsiyaning yanada aniqroq bo'linishiga, bu esa mazkur qismlarni terminlashtirishga olib keladi” (11). Yuqoridagi tasniflarda ham ergonim turlarining har biri yangi terminlar bilan nomlanganligi kuzatiladi.

Mavjud ishlarda, ayniqsa, ergonimlarning funksional-semantik, derivatsion xususiyatlari chuqur yoritildi. Jumladan, F.Alistanova ergonimlarning atoqli otlarning bir ko'rinishi sifatida quyidagi lingvistik xususiyatlarga egaligini bayon qildi: 1) alohida predmetlardan birini nomlashga xizmat qiladi va bir turdagi obyektни boshqalaridan ajratib ko'rsatadi; 2) ergonim, odatda, asosdan anglashilgan tushuncha bilan bevosita bog'liq bo'lmashligi mumkin; 3) ergonimlar onimlarning alohida bir turi sifatida boshqa atoqli otlar kabi grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, turli so'z turkumlari asosida hosil bo'ladi: sifat, fe'l, ravish, sifatdosh kabi. (12)

Ayrim tilshunoslar ergonimlarni onomastik maydondagi boshqa nomlar bilan birlashtirishga harakat qildilar. Jumladan, I.V. Kryukova *reklama nomi* sifatida taklif qilgan birliklar sirasiga ergonimlardan tashqari, *tovar belgilari nomlari* (pragmatonimlar), *ommaviy axborot vositalari nomlari* (gemeronimlar), *festival, konkurs va konsertlar nomlari* (geortonimlar), *transport vositalari nomlari* (poreyonimlar)ni kiritdi. (13)

Xullas, tilshunoslikda, xususan, rus tilshunosligida ergonimlar turli aspektlarda o'rganildi va muayyan ilmiy xulosalarga kelindi.

O'zbek tilshunosligida ergonimik birliklarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud bo'lmasa-da, keyingi yillarda, garchi *ergonim* termini bilan berilmagan bo'lsa-da, ayrim ishlar yuzaga keldi. (14)

Shuningdek, turli hududlarga xos ergonimlarning qiyosiga bag'ishlangan ishlar ham alohida guruhni tashkil qiladi. (15) Bu kabi ishlarda turli periferiyalardagi ergonimik manzara tahlil qilinadi.

Ergonimlar o'zbek tilida ham funksiyalashgan mustaqil mikrotizim sanaladi. Ergonim har qanday tilshunoslik termini kabi, tildagi ma'lum bir ilmiy dunyoqarashni aks ettiruvchi

tushunchalarni ifodalovchi semiologik sistema birligidir. Uning semantik strukturasi esa ergonimni xarakterlovchi potensial belgilarning umumiyligi asosida reallashadi.

Tadqiqotimizda ergonim termini ostida ma'lum hududning ergonimik maydonini ko'rsatib beruvchi turli toifadagi korxonalarning nomlarini tushunamiz: insonlarning ish faoliyati uyushmalari (ilmiy, ta'limiy, ishlab-chiqarish sohasida); tijorat tashkilotlari (agentliklar, bank, do'kon, firmalar); madaniy-ko'ngilochar obyektlar (kinoteatr, klub, teatr, park, dam olish zonalari); sport va sog'lomlashtirish obyektlari (stadion, komplekslar)ni belgiladik.

“Ergonimlar atoqli otlarning bir ko'rinishi sifatida o'ziga xos bir qator lingvistik xususiyatlarni namoyon etadi:

1) alohida predmetlardan birini nomlashga xizmat qiladi va bir turdagi obyektни boshqalaridan ajratib ko'rsatadi;

2) ergonim, odatda, asosidagi anglashilgan tushuncha bilan bevosita bog'liq bo'lmasligi mumkin;

3) ergonimlar onimlarning alohida bir turi sifatida boshqa atoqli otlar kabi grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, turli so'z turkumlari asosida hosil bo'ladi: sifat, fe'l, ravish, sifat-dosh kabi.(16)

Ergonimlarning ichki guruhlari sifatida olimlar bir qator turlarni ajratib ko'rsatishadi: tijorat korxonalari nomi, oykodomonim, urbanonim, reklama nomi, urbanonim, emporonim, partionim, ergoreklamonim, tijorat ergonim, nol (нулевой) ergonim va boshq.. (Vasileva 2010; Vovk 2010; Korshunkov 1997; Podolskaya 1978; Romanova 2002; Torchinskiy 2008; Shimkevich 2002; Yaloves- Konovalova 1997 va boshq.).

Bunday guruhlanishni N.V.Podolskaya shunday izohlaydi: “Mavzuni chuqurroq o'rganishda ichki aloqalar va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish muqarrar ravishda konsepsiyaning yanada aniqroq bo'linishiga, bu esa mazkur qismlarni terminlashtirishga olib keladi” (17)

Bundan tashqari, olimlar ergonimlarni onomastik maydondagi bir qator nomlar bilan birlashtirishga harakat qiladilar I.V. Kryukova “reklama nomi” sifatida taklif qilgan birliklar sirasiga ergonimlardan tashqari, tovar belgilari (pragmatonimlar), ommaviy axborot vositalari nomlari (gemeronimlar), festival, konkurs va konsertlar (geortonimlar), transport vositalari nomlari (poreyonimlar)ni kiritadi. (18) Y.A. Trifonova esa an'anaviy “ergonim” termini ostida huquqiy maqomidan qat'i nazar, har qanday tijorat obyektlariga tegishli atoqli nomlarni kiritadi va ular orqali nomlovchi subyekt tomonidan sun'iy ravishda qabul qiluvchiga pragmatik ta'sir o'tkazishga xizmat qilishi maqsad qilinishini ta'kidlaydi.(19)

A.M. Yemelyanova ergonimlar tarkibiga faqatgina turli funksional profildagi korxonalarning tegishli nomlari, ya'ni insonlarning biznes birlashmalari, madaniyat, sport obyektlari, tijorat korxonalarini kiritadi. (20)

Ergonimlar onomastik tizimdagi toponimlar bilan ham aloqadordir. Chunki savdo, ishlab-chiqarish obyektlari, korxona va tashkilotlarning nomi u joylashgan hudud nomi bilan ham atalishi mumkin. Masalan, “Qushbegi” restorani Toshkent shahrining Qushbegi mavzesida joylashgan; “Chorsu” mehmonxonasi, “Rohat” avtosaloni, “Cho‘pon ota” choyxonasi, “Beshyog‘och” bozori kabi ergonimlari ham bunga misol bo‘la oladi. Rus tilshunosi R.I.Kozlov ma‘lum hudud bilan bog‘liq lokal korxona nomlari nafaqat *ergo-* balki *topoobyekt* bo‘lishi, boshqacha aytganda, ular tijoriy bog‘liqlikdan tashqari korxona joylashgan hudud bilan jips bog‘liq bo‘lishini va bu tipdagi atoqli otlarni *ergourbonimlar* deb atash to‘g‘ri bo‘lishini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, bunday lokal korxona nomlari ergonimdan ko‘ra toponimik tizimga ko‘proq taalluqlidir. (21) Bizningcha, bu fikr birmuncha munozarali. Bir onomastik birlik boshqa tizimga mansub xabarni tashishi mumkin va bunda onomastik birliklar o‘rtasida omonimik munosabat hosil bo‘ladi. Yuqoridagi misollarda toponim va ergonimlar onomastik omonimlardir. Qanday onim haqida fikr yuritilayotganligini kontekstga qarab aniqlash mumkin bo‘ladi. Atoqli tilshunos B.O‘rinboev bu haqda quyidagilarni qayd qiladi: Ma‘lumki, har bir onimik leksema ma‘lum bir ma‘noni beradi, ya‘ni ma‘noni beradi, ya‘ni leksema joy yoki shaxs haqida xabarni yetkazishi mumkin. Bu xabar esa, maxsus onomastik vazifani bajaradi va uslubiy hamda estetik ahamiyatga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bir onomastik leksema bir sohada emas, balki bir necha sohada ham ma‘lum bir xabarni tashishi mumkin. Shaklan bir xil, mazmuni har xil bo‘lgan onimlar, onomastikada omonimiyani vujudga keltiradi: Guliston (shahar), Guliston (antroponim), Zarafshon (shahar), Zarafshon (antroponim). Turdosh otlar onimik leksemalarga o‘tganida hosil bo‘ladigan apillyativ omonimiya: Yashasin (antroponim), yashasin (fe‘l shakli), Botir (antroponim), botir (sifat), Kumush (antroponim), kumush (ot) kabi . (22)

XULOSA

Xullas, ergonimlar o‘zbek tilida funksiyalashgan mustaqil mikrotizim sanaladi. Ergonim har qanday tilshunoslik termini kabi, tildagi ma‘lum bir ilmiy dunyoqarashni aks ettiruvchi tushunchalarni ifodalovchi semiologik sistema birligidir. Uning semantik strukturasi esa ergonimni xarakterlovchi potensial belgilarning umumiyliги asosida reallashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Земскова С.В. Лексико-семантический и словообразовательный анализ эргонимов г. Тольятти Самарской области Российской Федерации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: РУДН, 1996; Беспалова А.В. Принципы и способы номинации в английской эргонимии // Номинация в ономастике. – Свердловск: Изд-во УрГУ, 1991; Голомидова М.В. Искусственная номинация в русской ономастике: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Екатеринбург: УрГУ, 1998.

2. Яловец-Коновалова Д.А. Названия коммерческих предприятий: ономазиологическая классификация и функционирование в современном русском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. Челябинск: ЧелГУ, 1997. –24 с.
3. Белей О. О. Сучасна українська ергонімія: власні назви підприємств Закарпаття / О. О. Белей. – Ужгород: [б. в.], 1999. – 112 с.
4. Вайрах Ю. В. Эргоурбонимия города Иркутска: структурносемантический и лингвокультурологический аспекты исследования: автореф. ... канд. филол. наук: спец. 10.02.01. – “Русский язык” / Ю. В. Вайрах. – УланУдэ, 2011. – 22 с.
5. Захарова-Саровская М. В. К вопросу об эргонимии // Вестник Кемеровского государственного университета. – Кемерово, 2018. – №3. – С. 187-188.
6. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988.
7. Емельянова А.М. Прагматический аспект эргонимии (на примере названий заведений общественного питания г. Уфы // <https://www.gramota.net/materials/2/2016/7-2/26.html>
8. Трифонова Е.А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика (на материале русских и английских эргонимов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – С.3.
9. Курбанова М.Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград. 2015. – С. 11.
10. Шимкевич Н. В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. ... канд филол. наук. – Екатеринбург, 2002; Алиева Т. Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-деривационный аспект: автореф. Дисс. ... д-ра филол. наук. – Спб., 2003; Крючкова М. Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2003; Крюкова И. В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004; Трифонова Е. А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006; Емельянова А. М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2007; Носенко Н. В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007; Танаева З. Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система:

Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2012; Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015; va boshqalar.

11. Подольская N.V. Ko'rsatilgan manba. – B. 10.

12. Алистанова Ф. Эргонимы современного русского языка как микросистема: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2011. – С.9.

13. Крюкова И. В. Рекламное имя: рождение, узуализация, восприятие. Учеб. пособие. – Волгоград, 2004. – С. 228.

14. Saparniyazova M., O'rozov J. O'zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.

15. Бобчинець Л.І. *Словогра в іспанських і українських ергонімах: способи творення та функції*. <http://philmessenger.knlu.edu.ua/article/view/252073>; Ратникова И., Хоанг Тху Бен. *Эргонимы в ономастическом пространстве языка (на материале названий предприятий Минска и Ханоя)*. /Карповские научные чтения: сб. науч. ст. Вып. 9: в 2 ч. Ч. 1 / редкол.: А.И. Головня (отв. ред.) [и др.] – Минск: «Белорусский Дом печати», 2015. – С.224-228; Трифонова Е. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика (на материале русских и английских эргонимов). *Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006*.

16. Алистанова Ф. Эргонимы современного русского языка как микросистема. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Махачкала, 2011. – С.9.

17. Подольская Н.В. Ko'rsatilgan manba. – B. 10.

18. Крюкова И. В. Рекламное имя: рождение, узуализация, восприятие: Учеб. Пособие. – Волгоград, 2004. – С. 228.

19. Трифонова Е.А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика (на материале русских и английских эргонимов). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. С.3.

20. Емельянова А.М. Прагматический аспект эргонимии (на примере названий заведений общественного питания г. Уфы. <https://www.gramota.net/materials/2/2016/7-2/26.html>

21. Козлов Р.И. Эргоурбонимы как новый разряд городской ономастики: Дисс... канд. филол. наук. – Екатеринбург: УрГУ, 2000. – 151 с.

22. O'rinboyev B. Ko'rsatilgan manba. – B.24.

23. М.Сапарниязова. Эргонимларда маданий код масаласи. // ORIENSS. 2023. №2.

URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ergonimlarda-madaniy-kod-masalasi>